2023-yil yanvar-sentabr oylari uchun
dastlabki ma’lumot



# SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi qtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo‘limi:
(66) 235-65-80



# TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal oʻsishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish boʻyicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda koʻproq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega boʻladi.

Viloyatda bu borada soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni ragʻbatlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini taʼminlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-yil** yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 981,7 mln. AQSh** dollariga yetdi va **2022-yil**ning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **262,3 mln. AQSh** dollariga yoki **15,3** % ga koʻpaydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

*yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari*



### Tashqi savdo aylanmasi

2023-y. **1 981,7** ***+15,3 %***

(2022-y. **1 719,3**)

**Saldo**

2023-y. **– 1 011,3** (2022 y. **- 795,1**)

### Eksport

2023-y. **485,2** ***+ 5,0 %***

(2022-y. **462,1**)

*Tovarlar:* ***456,4***

*Xizmatlar:* ***28,8***

### Import

2023-y. **1 496,5** ***+19,0%***

(2022-y. **1 257,2**)

*Tovarlar:* ***1 494,0***

*Xizmatlar:* ***2,5***

**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi **485,2** mln. AQSh dollariga **(5,0** % ga ko‘paydi) va import hajmi **1 496,5** mln. AQSh dollariga (**19,0** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **– 1 011,3** mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

## SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

*2023-yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari va ulushi, %*

| XXR | Rossiya | Qozog‘iston | Turkiya | BAA |
|---|---|---|---|---|
| TSA – 478,4 | TSA – 434,0 | TSA – 236,6 | TSA – 139,1 | TSA – 63,4 |
| Eksport: 43,6 | Eksport: 150,7 | Eksport: 90,7 | Eksport: 28,1 | Eksport: 14,2 |
| Import: 434,8 | Import: 283,3 | Import: 145,9 | Import: 111,0 | Import: 49,2 |
| *24,1 %* | *21,9 %* | *11,9 %* | *7,0 %* | *3,2 %* |

| Ozarbayjon | Tojikiston | Germaniya | Yaponiya | Polsha |
|---|---|---|---|---|
| TSA – 57,3 | TSA – 53,7 | TSA – 35,9 | TSA – 35,6 | TSA – 34,8 |
| Eksport: 10,6 | Eksport: 46,0 | Eksport: 3,7 | Eksport: 0,0 | Eksport: 1,5 |
| Import: 46,7 | Import: 7,7 | Import: 32,2 | Import: 35,6 | Import: 33,3 |
| *2,9 %* | *2,7 %* | *1,8 %* | *1,8 %* | *1,8 %* |

Samarqand viloyati jahonning **99** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (**24,1** %), Rossiya Federatsiyasida (**21,9** %), Qozog‘istonda (**11,9** %), Turkiyada (**7,0** %), BAAda (**3,2** %), Ozarbayjonda (**2,9** %) va Tojikistonda (**2,7** %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda TSA Qozog‘iston bilan **46,4** foizga oshdi.

## TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT

*2023-yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari*

**Tojikiston– 53,7**

**Qirg‘iz Respublikasi – 21,4**

**Belarus– 14,3**

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Tojikiston, Qirg‘iz Respublikasi va Belarus Respublikasi shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda..

## SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari*

| Davlatlar | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **191,7** | **264,3** | **478,4** |
| *Eksport* | 37,6 | 32,4 | 43,6 |
| *Import* | 154,1 | 231,8 | 434,7 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **230,5** | **373,3** | **434,0** |
| *Eksport* | 76,2 | 99,7 | 150,7 |
| *Import* | 154,3 | 273,6 | 283,3 |
| **Qozog'iston** | **161,7** | **279,7** | **236,6** |
| *Eksport* | 41,8 | 87,6 | 90,7 |
| *Import* | 119,9 | 192,1 | 145,9 |
| **Turkiya** | **111,4** | **133,8** | **139,1** |
| *Eksport* | 28,8 | 52,7 | 28,1 |
| *Import* | 82,6 | 81,1 | 111,0 |
| **BAA** | **4,5** | **4,3** | **63,4** |
| *Eksport* | 2,3 | 2,0 | 14,2 |
| *Import* | 2,2 | 2,3 | 49,2 |
| **Ozarbayjon** | **11,2** | **12,3** | **57,3** |
| *Eksport* | 10,7 | 11,6 | 10,6 |
| *Import* | 0,5 | 0,7 | 46,7 |
| **Tojikiston** | **44,8** | **54,3** | **53,7** |
| *Eksport* | 40,4 | 46,1 | 46,0 |
| *Import* | 4,4 | 8,2 | 7,7 |
| **Germaniya** | **38,9** | **40,0** | **35,9** |
| *Eksport* | 2,3 | 2,4 | 3,7 |
| *Import* | 36,6 | 37,6 | 32,2 |
| **Yaponiya** | **62,8** | **55,5** | **35,6** |
| *Eksport* | 0,4 | 0,1 | 0,0 |
| *Import* | 62,4 | 55,4 | 35,6 |
| **Polsha** | **8,3** | **21,5** | **34,8** |
| *Eksport* | 2,3 | 6,5 | 1,5 |
| *Import* | 6,0 | 15,0 | 33,3 |

*Davomi*

| Davlatlar | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. |
|---|---|---|---|
| **Sloveniya** | **28,3** | **36,9** | **30,8** |
| *Eksport* | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| *Import* | 28,3 | 36,9 | 30,8 |
| **Eron** | **26,2** | **33,3** | **30,2** |
| *Eksport* | 2,5 | 5,6 | 4,8 |
| *Import* | 23,7 | 27,7 | 25,4 |
| **Hindiston** | **21,1** | **40,8** | **29,2** |
| *Eksport* | 0,1 | 0,5 | 3,2 |
| *Import* | 21,0 | 40,3 | 26,0 |
| **Litva** | **18,1** | **29,3** | **26,3** |
| *Eksport* | 0,6 | 5,8 | 2,5 |
| *Import* | 17,5 | 23,5 | 23,8 |
| **Latviya** | **18,9** | **22,6** | **21,6** |
| *Eksport* | 0,6 | 1,2 | 1,0 |
| *Import* | 18,3 | 21,4 | 20,6 |
| **Qirg'iz Respublikasi** | **28,8** | **35,6** | **21,4** |
| *Eksport* | 27,9 | 32,9 | 18,0 |
| *Import* | 0,9 | 2,7 | 3,5 |
| **Gruziya** | **17,2** | **19,8** | **19,4** |
| *Eksport* | 2,1 | 5,3 | 5,6 |
| *Import* | 15,1 | 14,5 | 13,8 |
| **Italiya** | **12,4** | **11,8** | **16,6** |
| *Eksport* | 7,7 | 4,9 | 3,6 |
| *Import* | 4,7 | 6,9 | 13,0 |
| **Nederlandiya** | **11,2** | **14,3** | **15,1** |
| *Eksport* | 2,9 | 1,6 | 0,3 |
| *Import* | 8,3 | 12,7 | 14,8 |
| **Belarus Respublikasi** | **12,0** | **28,7** | **14,3** |
| *Eksport* | 5,3 | 10,3 | 9,3 |
| *Import* | 6,7 | 18,4 | 5,0 |

## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2023-yil yanvar-sentabr [1]*

|  | Hajm mln. AQSh dollari | O‘sish sur’ati, % | Ulushi, % |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **1 981,7** | **115,3** | **100,0** |
| Samarqand shahri | 1 051,1 | 118,4 | 53,0 |
| Kattaqo‘rg‘on shahri | 34,8 | 145,6 | 1,8 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 30,5 | 91,6 | 1,5 |
| Bulung‘ur | 18,7 | 107,7 | 0,9 |
| Jomboy | 157,0 | 86,7 | 7,9 |
| Ishtixon | 17,5 | 73,8 | 0,9 |
| Kattaqo‘rg‘on | 134,9 | 6,3 m. | 6,8 |
| Qo‘shrabot | 5,3 | 77,2 | 0,3 |
| Narpay | 28,1 | 194,1 | 1,4 |
| Payariq | 13,2 | 120,3 | 0,7 |
| Pastdarg‘om | 49,3 | 85,6 | 2,5 |
| Paxtachi | 11,6 | 70,0 | 0,6 |
| Samarqand | 154,3 | 111,5 | 7,8 |
| Nurobod | 21,0 | 154,0 | 1,1 |
| Urgut | 137,8 | 97,4 | 7,0 |
| Toyloq | 109,0 | 86,6 | 5,5 |




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **53,0** % ulush bilan **1 051,1** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo‘shrabot tumani **0,3** % ulush bilan **5,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

*[1] Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar, Samarqand viloyati, shaharlar va tumanlari bo‘yicha taqsimlanmagan*

# SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

*yanvar-sentabr, mln. AQSh dollar*






2023-yilning yanvar-sentabr oylarida, Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasining **42,5** % ulushi MDH davlatlariga to‘g‘ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2022-yilning mos davriga nisbatan ulushi **5,7** % ga kamaydi .

Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 2022-yilning mos davriga nisbatan **5,7** % ga ko‘paydi va jami TSAdagi ulushi **57,5** % ni tashkil etdi.

Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, **842,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **334,6** mln. AQSh dollariga yetgan bo‘lsa, import **508,3** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



## SAMARQAND VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2023-yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollar*

**Rossiya**
TSA – 434,0
Eksport – 150,7
Import – 283,3

**Qozog‘iston**
TSA – 236,6
Eksport – 90,7
Import – 145,9

**Tojikiston**
TSA – 53,7
Eksport – 46,0
Import – 7,7

**Qirg`iz Respublikasi**
TSA – 21,4
Eksport – 18,0
Import – 3,4

**Belarus Respublikasi**
TSA – 14,3
Eksport – 9,3
Import – 5,0

**Turkmaniston**
TSA – 10,0
Eksport – 3,2
Import – 6,8

**Ozarbayjon**
TSA – 57,3
Eksport – 10,6
Import – 46,7

**Ukraina**
TSA – 10,8
Eksport – 3,5
Import – 7,3

**Armaniston**
TSA – 2,2
Eksport – 0,8
Import – 1,4

**Moldova**
TSA – 2,4
Eksport – 1,8
Import – 0,6

Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (51,5 %), Qozog‘iston (28,1 %) hamda Ozarbayjon (6,8 %) davlatlari bilan qayd etildi.

# SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA A’ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2023 yil yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari, ulushi, %*

**Rossiya**
TSA – 434,0
Eksport – 150,7
Import – 283,3

**Qozog‘iston**
TSA – 236,6
Eksport – 90,7
Import – 145,9

**Qirg`iz Respublikasi**
TSA – 21,4
Eksport – 18,0
Import – 3,4

**Belarus**
TSA – 14,3
Eksport – 9,3
Import – 5,0

**Armaniston**
TSA – 2,2
Eksport – 0,8
Import – 1,4



**Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi**
35,8 %

**Jami eksportdagi ulushi**
55,5 %

**Jami importdagi ulushi**
29,3 %

Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a’zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **708,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **269,5** mln. AQSh dollari, import hajmi esa **439,2** mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeOIIning a’zo davlatlari (Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o‘rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta’minlangan bo‘lib, yagona bojxona tizimiga ega bo‘lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

# SAMARQAND VILOYATI EKSPORTI

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror oʻsishiga koʻmaklashadi va bu oʻz navbatida maʼlum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan **485,2** mln. AQSh dollari qiymatidagi *(2022-yilning mos davriga nisbatan **105,0** % ni tashkil etdi)* tovar va xizmatlar eksport qilinishi taʼminlandi.

## XSST[1] BOʻYICHA EKSPORT TARKIBI

*2023-yil yanvar-sentabr, ulushi, %*

**1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** — 34,7

**2. Ichimliklar va tamaki** — 0,7

**3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari** — 2,6

**4. Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar** — 2,2

**5. Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar** — 1,1

**6. Kimyoviy vositalar va shunga oʻxshash mahsulotlar** — 0,8

**7. Sanoat tovarlari** — 28,6

**8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari** — 14,8

**9. Turli xil tayyor buyumlar** — 8,7

**10. Xizmatlar** — 5,9

*Oʻzbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik koʻrsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi **(keyingi oʻrinlarda TIF TN)** bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi **(keyingi oʻrinlarda – XSST)** ishlatiladi. Bu oʻz navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** boʻyicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** oʻrtasida oʻtish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*



# SAMARQAND VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

*yanvar-sentabr, yillar kesimida*

| XSST tarkibi | mln. AQSh dollari | | O‘sish sur’ati, % | | Umumiy hajmga nisbatan, % | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 |
| **Jami eksport** | **462,1** | **485,2** | **128,0** | **105,0** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 151,4 | 168,3 | 144,8 | 111,1 | 32,8 | 34,7 |
| Ichimliklar va tamaki | 5,2 | 3,5 | 163,5 | 66,6 | 1,1 | 0,7 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 19,6 | 12,6 | 88,9 | 63,9 | 4,2 | 2,6 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 5,1 | 10,6 | 8,9 m. | 2,1 m. | 1,1 | 2,2 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 12,0 | 5,5 | 148,2 m. | 45,9 | 2,6 | 1,1 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 18,8 | 3,7 | 91,1 | 19,5 | 4,1 | 0,8 |
| Sanoat tovarlari | 162,2 | 138,7 | 136,0 | 85,5 | 35,1 | 28,6 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 34,8 | 71,7 | 88,7 | 2,1 m. | 7,5 | 14,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 37,1 | 42,0 | 121,1 | 113,2 | 8,0 | 8,7 |
| Xizmatlar | 15,9 | 28,7 | 76,9 | 180,6 | 3,4 | 5,9 |

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **94,1 %** ni tashkil etib, ulardan eng yuqorilari oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**34,7 %**), sanoat tovarlari (**28,6 %**) va mashina va transport asbob-uskunalari (**14,8 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



# SAMARQAND VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI, *2023-yil yanvar-sentabr*

| XSST bo‘limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2022-yilning mos davriga nisbatan, % |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 138,2 | 122,4 |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | 18,9 | 85,3 |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari | 5,6 | 56,6 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 3,5 | 66,4 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 8,0 | 55,9 |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 2,2 | 58,8 |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar | 10,6 | 337,7 |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simliklar moylari va yog‘lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan | 5,5 | 45,9 |
| **Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar | 1,0 | 102,8 |
| Boshqa joyda tavsiflanmagan kimyoviy vositalar va mahsulotlar | 0,7 | 19,2 m. |

*Davomi*

| XSST bo‘limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2022-yilning mos davriga nisbatan, % |
|---|---|---|
| | | |
| **Sanoat tovarlari** | | |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 61,6 | 68,7 |
| Cho‘yan va po‘lat | 44,4 | 88,0 |
| Rangli metal | 19,8 | 156,4 |
| Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 10,2 | 154,9 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | 64,1 | 2,3 m. |
| Elektr mashinalari, aparatlar, asboblar va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 4,7 | 166,6 |
| Sanoat uchun maxsus bo’lmagan mashinalar, asbob - uskunalar lar va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 2,4 | 138,0 |
| Aniq sohalar uchun maxsus bo’lgan mashinalar va uskunalar | 0,3 | 18,4 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari | 36,1 | 118,5 |
| Poyafzal | 4,2 | 69,6 |
| Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 0,8 | 2,2 m. |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 0,5 | 8,7 m. |
| **Xizmatlar** | | |
| Transport xizmatlari | 11,2 | 6,2 m. |
| Turizm xizmatlari | 11,8 | 2,8 m. |

> *O‘zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo‘lsa, jo‘natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.*

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

*yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari*

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariga **334,6** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **69,0** % ini tashkil etdi.




2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakunida eksport bo‘yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **31,1** %i) va Qo‘zog‘iston (**18,7** %i) davlatlari yetakchilik qildi. Yuqoridagi yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **80,7** % ni tashkil etdi.

## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, *2023-yil yanvar-sentabr, %*

| | |
|---|---|
| 31,1 | Rossiya |
| 18,7 | Qozog‘iston |
| 9,5 | Tojikiston |
| 9,0 | XXR |
| 5,8 | Turkiya |
| 3,7 | Qirg‘iz Respublikasi |
| 2,9 | BAA |
| 19,3 | Boshqa davlatlar |



## SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI, *yanvar-sentabr, yillar kesimida*

| Davlatlar | Mln. AQSh dollari | | O‘sish sur’ati, % | | Egallab turgan o‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 |
| Rossiya Federatsiyasi | 99,7 | 150,7 | 130,9 | 151,1 | 1 | 1 |
| Qozog‘iston | 87,6 | 90,7 | 2,1 m. | 103,6 | 2 | 2 |
| Tojikiston | 46,1 | 46,0 | 114,2 | 99,8 | 4 | 3 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 32,4 | 43,6 | 86,4 | 134,5 | 6 | 4 |
| Turkiya | 52,7 | 28,1 | 183,0 | 53,4 | 3 | 5 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 32,9 | 18,0 | 117,9 | 54,5 | 5 | 6 |
| BAA | 2,0 | 14,2 | 85,7 | 7,1 m. | 21 | 7 |
| Afg‘oniston | 24,8 | 11,8 | 164,4 | 47,7 | 7 | 8 |
| Ozarbayjon | 11,6 | 10,6 | 108,4 | 91,2 | 8 | 9 |
| Belarus Respublikasi | 10,3 | 9,4 | 195,6 | 91,1 | 9 | 10 |
| Gruziya | 5,3 | 5,5 | 2,5 m. | 103,3 | 13 | 11 |
| Eron | 5,6 | 4,8 | 2,2 m. | 84,4 | 12 | 12 |
| Germaniya | 2,4 | 3,7 | 104,6 | 154,9 | 20 | 13 |
| Italiya | 4,9 | 3,6 | 63,5 | 73,7 | 15 | 14 |
| Ukraina | 2,4 | 3,5 | 27,1 | 144,2 | 19 | 15 |
| AQSh | 3,0 | 3,5 | 124,8 | 116,2 | 18 | 16 |
| Hindiston | 0,5 | 3,3 | 2,6 m. | 6,9 m. | 34 | 17 |
| Turkmaniston | 3,1 | 3,2 | 140,8 | 102,8 | 17 | 18 |
| Iroq | 1,3 | 2,5 | 82,5 | 197,5 | 25 | 19 |
| Litva | 5,8 | 2,5 | 9,3 m. | 42,8 | 11 | 20 |

## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

*2023-yil yanvar-sentabr* [1]

|  | Hajm mln. AQSh dollari | O‘sish sur’ati, % | Ulushi, % |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **485,2** | **105,0** | **100** |
| Samarqand shahri | 203,9 | 112,8 | 42,0 |
| Kattaqo‘rg‘on shahri | 20,8 | 141,7 | 4,3 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 14,2 | 74,3 | 2,9 |
| Bulung‘ur | 11,4 | 92,1 | 2,4 |
| Jomboy | 58,8 | 130,3 | 12,1 |
| Ishtixon | 12,6 | 78,4 | 2,6 |
| Kattaqo‘rg‘on | 5,1 | 47,2 | 1,0 |
| Qo‘shrabot | 1,6 | 58,9 | 0,3 |
| Narpay | 15,5 | 156,4 | 3,2 |
| Payariq | 7,7 | 101,6 | 1,6 |
| Pastdarg‘om | 11,2 | 83,1 | 2,3 |
| Paxtachi | 9,5 | 77,1 | 2,0 |
| Samarqand | 52,3 | 110,3 | 10,8 |
| Nurobod | 3,4 | 8 m. | 0,7 |
| Urgut | 36,2 | 85,6 | 7,5 |
| Toyloq | 13,5 | 61,2 | 2,8 |

**Eng yuqori hajm,** mln. AQSh dollari

- Samarqand sh. 203,9
- Jomboy 58,8
- Samarqand 52,3

**Eng quyi hajm,** mln. AQSh dollari

- Kattaqo‘rg‘on 5,1
- Nurobod 3,4
- Qo‘shrabot 1,6

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **42,0** % ulush bilan **203,9** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo‘shrabot tumani **0,3** % ulush bilan **1,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

*[1] Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar, Samarqand viloyati, tuman va shaharlari bo‘yicha taqsimlanmagan.*



# MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo‘jaligi va bog‘dorchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida **111,1** mln. AQSh dollarlik **124,9** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatgich 2022-yilning mos davriga nisbatan **4,5** mln. AQSh dollariga ko‘paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (**31,0** %), XXR (**15,8** %), Turkiya (**8,3** %), hamda Qozog‘iston (**7,9** %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

2023-yil yanvar-sentabr, qiymatga nisbatan o‘sish sur’atlari

| Mahsulot | Qiymati | Hajmi | O‘sish sur’ati |
|---|---|---|---|
| Uzum yangi uzilgan | 33,1 mln. AQSh dollari | 30,1 ming tonna | 92,8 % |
| Meva va rezavorlar | 46,3 mln. AQSh dollari | 44,3 ming tonna | 148,1 % |
| Qalampir | 0,9 mln. AQSh dollari | 0,9 ming tonna | 77,7 % |
| Sabzavotlar | 27,5 mln. AQSh dollari | 44,7 ming tonna | 83,2 % |
| Uzum quritilgan | 23,3 mln. AQSh dollari | 20,0 ming tonna | 88,7 % |
| Kartoshka | 0,0 mln. AQSh dollari | 0,0 ming tonna | 0,0 % |
| Yeryong‘oq | 2,1 mln. AQSh dollari | 1,5 ming tonna | 64,0 % |
| Qovun va tarvuz | 1,2 mln. AQSh dollari | 3,5 ming tonna | 54,7 % |



# MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI, *2023-yil yanvar-sentabr*

| Davlatlar | Ming tonna | Mln. AQSh dollari | Ulushi, % |
|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 34,8 | 34,5 | 31,0 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 20,2 | 17,5 | 15,8 |
| Turkiya | 5,8 | 9,3 | 8,3 |
| Qozog'iston | 26,5 | 8,7 | 7,9 |
| Belarus Respublikasi | 8,7 | 7,2 | 6,5 |
| Ozarbayjon | 2,5 | 3,9 | 3,5 |
| Eron | 2,7 | 3,6 | 3,3 |
| Gruziya | 5,0 | 3,5 | 3,1 |
| Ukraina | 4,5 | 3,2 | 2,8 |
| BAA | 1,9 | 2,8 | 2,5 |
| Iroq | 1,6 | 2,5 | 2,2 |
| Litva | 1,0 | 2,3 | 2,0 |
| AQSH | 0,4 | 1,8 | 1,6 |
| Pokiston | 1,4 | 1,7 | 1,5 |
| Brazilya | 1,7 | 1,3 | 1,2 |
| Boshqa davlatlar | **6,2** | **7,6** | **6,8** |

[1] *qiymat ifodasidan*

2023-yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **31,0** %), bu Xitoy Xalq Respublikasi eksport hajmidan **15,3** % ga ko'p.



# TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta’minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023-yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo‘yicha **71,5 mln**. AQSh dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **14,7** % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish sur’ati **58,5** % ni tashqil qildi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor tirikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**50,0** %), Gilam mahsulotlari (**15,4** %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **96** turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning **26** ta davlatiga eksport qilindi.

## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari



| | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|
| **Jami** | **122.2** | **71,5** |
| Tayyor to`qimachilik mahsulotlari | 30,3 | 35,8 |
| Gilamlar | 16,3 | 11,0 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | 12,1 | 12,1 |
| Naqshli mato | 6,5 | 5,1 |
| Paxtadan gazlamalar | 4,8 | 2,2 |
| Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari | 52,2 | 5,3 |

## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI, *yanvar-sentabr, mln. AQSh dollari*

| | 2022-yil | 2023-yil | Ulushi, % |
|---|---|---|---|
| Rossiya Federatsiyasi | 32,0 | 33,0 | 46,1 |
| Tojikiston | 7,8 | 9,4 | 13,2 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 13,5 | 7,0 | 9,8 |
| Ozarbayjon | 3,4 | 4,4 | 6,1 |
| Italiya | 4,8 | 3,3 | 4,7 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 17,2 | 2,7 | 3,7 |
| Qozog‘iston | 1,9 | 2,3 | 3,2 |
| Germaniya | 0,8 | 2,0 | 2,8 |
| Afg‘oniston | 2,6 | 1,6 | 2,2 |
| Vetnam | 0,0 | 1,1 | 1,6 |
| Moldava Respublikasi | 0,9 | 0,9 | 1,2 |
| Turkiya | 29,1 | 0,8 | 1,1 |
| Turkmaniston | 0,4 | 0,8 | 1,1 |
| Belarus Respublikasi | 0,2 | 0,6 | 0,8 |
| Boshqa davlatlar | **7,4** | **1,8** | **2,6** |

Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (**33,0** mln. AQSh dollari – **46,1** %) va Tojikiston (**9,4** mln. AQSh dollari – **13,2** %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, oʻz navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida oʻz oʻrnini topish imkonini beradi.

## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

*2023-yil yanvar-sentabr, ulushi, %*




Xizmatlar eksporti hajmi **28,7** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 5,9 % ini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 80,6 % koʻpaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlar (**38,8** %), safarlar (turizm) xizmatlar (**41,0** %), moliyaviy xizmatlar (**14,1** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**3,5** %) va qurilish xizmatlar (**2,6** %) hissasiga toʻgʻri kelgan. Shu bilan birga boshqa ish bilan boʻgʻliq xizmatlar (**0,01** %) hissasiga toʻgʻri keldi.

## SAMARQAND VILOYATINING IMPORT

2023-yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi **1 496,5** mln. AQSh dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan **119,0** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (**35,2** %), sanoat tovarlari (**22,7** %), hamda kimyoviy vositalar va shunga oʻxshash mahsulotlar(**24,2** %) hisobiga toʻgʻri keldi.

### XSST BOʻYICHA IMPORT TARKIBI

*2023-yil yanvar-sentabr, ulushi, %*

| | |
|---|---|
| 1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 8,3 |
| 2. Ichimliklar va tamaki | 0,0 |
| 3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilgʻidan tashqari | 2,8 |
| 4. Mineral yoqilgʻi, yogʻlash moylari va shunga oʻxshash materiallar | 2,3 |
| 5. Hayvon va oʻsimliklar moylari (yogʻlari), yogʻlar va mumlar | 1,9 |
| 6. Kimyoviy vositalar va shunga oʻxshash mahsulotlar | 24,2 |
| 7. Sanoat tovarlari | 22,7 |
| 8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 35,2 |
| 9. Turli xil tayyor buyumlar | 2,4 |
| 10. Xizmatlar | 0,2 |

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga koʻra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **238,6** mln. AQSh dollariga koʻpaydi va **1 494,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar **2,5** mln. AQSh dollariga yetdi.



## SAMARQAND VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI, *yanvar-sentabr, yillar kesimida*

| XSST tarkibi | Mln. AQSh dollari | | O‘sish sur’ati, % | | Umumiy hajmga nisbatan. % | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2022-y. | 2023-y. | 2022-y. | 2023-y. | 2022-y. | 2023-y. |
| **Jami import** | **1 257,2** | **1 496,5** | **129,8** | **119,0** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 126,3 | 124,2 | 129,6 | 98,3 | 10,0 | 8,3 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | 0,1 | 35,1 | 50,5 | 0,0 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 63,3 | 42,5 | 161,9 | 67,2 | 5,0 | 2,8 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 24,0 | 34,5 | 114,0 | 143,6 | 1,9 | 2,3 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 17,4 | 28,5 | 81,1 | 164,5 | 1,4 | 1,9 |
| Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 314,6 | 362,8 | 114,2 | 115,3 | 25,0 | 24,2 |
| Sanoat tovarlari | 349,6 | 339,2 | 185,6 | 97,0 | 27,8 | 22,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 329,6 | 526,1 | 109,3 | 159,6 | 26,2 | 35,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 30,6 | 36,0 | 135,6 | 117,9 | 2,4 | 2,4 |
| Xizmatlar | 1,8 | 2,5 | 145,8 | 142,2 | 0,1 | 0,2 |



# XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI

*2023-yil yanvar-sentabr*

| XSST bo‘limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2022-yilga nisbatan, % |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 48,1 | 157,6 |
| Hayvonlar uchun ozuqalar | 37,6 | 132,3 |
| Meva va sabzavotlar | 19,7 | 143,8 |
| Tirik hayvonlar uchun ozuqalar 03 bo‘limdakilarni qo‘shgan holda | 8,6 | 107,9 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 0,1 | 50,5 |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 14,4 | 45,2 |
| Probka va yog‘och-taxtalar | 11,9 | 77,8 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo mahsulotlari | 4,8 | 78,9 |
| Qog'oz massasi va makulatura | 4,4 | 2,6 m. |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 31,0 | 140,5 |
| Ko‘mir, koks va briketlar | 3,2 | 164,5 |
| **Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moyi va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | 27,6 | 165,7 |
| Hayvonlar va o‘simliklar moyi va yog‘lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o‘simlik yog‘lari va moyidan olingan texnik aralashmalar va preparatlar | 0,9 | 134,7 |
| **Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | 213,7 | 101,5 |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 63,0 | 138,0 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy vositalar | 25,6 | 184,3 |

*Davomi*

| XSST bo‘limi nomi | Mln. AQSh dollari | 2022-yilga nisbatan, % |
|---|---|---|
| | | |
| **Sanoat tovarlari** | | |
| Cho‘yan va po‘lat | 174,7 | 79,2 |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan | 59,9 | 125,2 |
| Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 31,8 | 142,8 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan metalldan tayyorlangan buyumlar | 22,5 | 116,7 |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar | 152,7 | 128,3 |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan | 105,2 | 2,2 m. |
| Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) | 104,8 | 82,8 |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Maxsus ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan | 13,5 | 160,5 |
| Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar | 11,8 | 95,5 |
| Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 5,6 | 109,1 |
| Poyabzal | 2,0 | 158,3 |
| **Xizmatlar** | | |
| Transport xizmati | 2,5 | 145,7 |

2023-yil yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlaridan import ulushi **34,0** % ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **8,5** % ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

*yanvar-sentabr, mln. AQSh dollar*




2023-yil yanvar-sentabr oylarida Samarqand viloyati **82** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, BAA, Ozarbayjon va Polsha) jami importning **73,9** % ulushini tashkil etdi.

## VILOTAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, *2023-yil yanvar-sentabr, %*

| | |
|---|---|
| 29,1 | XXR |
| 18,9 | Rossiya |
| 9,7 | Qozog`iston |
| 7,4 | Turkiya |
| 3,3 | BAA |
| 3,1 | Ozarbayjon |
| 2,4 | Yaponiya |
| 26,1 | Boshqa davlatlar |



## SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O‘SISH SUR’ATLARI

*yanvar-sentabr, yillar kesimida*

| Davlatlar | Mln. AQSh dollari | | O‘sish sur’ati, % | | Umumiy hajmdagi o‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 | 2022 | 2023 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 231,8 | 434,7 | 150,4 | 187,5 | 2 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 273,6 | 283,4 | 177,3 | 103,6 | 1 | 2 |
| Qozog‘iston | 192,1 | 145,9 | 160,3 | 75,9 | 3 | 3 |
| Turkiya | 81,1 | 111,0 | 98,2 | 136,8 | 4 | 4 |
| BAA | 2,3 | 49,2 | 107,6 | 21,4 m. | 36 | 5 |
| Ozarbayjon | 0,7 | 46,7 | 152,0 | 69,5 m. | 49 | 6 |
| Yaponiya | 55,5 | 35,5 | 89,0 | 64,1 | 5 | 7 |
| Polsha | 15,0 | 33,3 | 2,5 m. | 2,2 m. | 14 | 8 |
| Germaniya | 37,6 | 32,2 | 102,5 | 85,8 | 7 | 9 |
| Sloveniya | 36,9 | 30,8 | 130,2 | 83,6 | 8 | 10 |
| Hindiston | 40,3 | 26,0 | 192,4 | 64,4 | 6 | 11 |
| Eron | 27,7 | 25,5 | 117,0 | 91,9 | 9 | 12 |
| Litva | 23,5 | 23,8 | 134,9 | 101,1 | 11 | 13 |
| Latviya | 21,3 | 20,6 | 116,4 | 96,5 | 12 | 14 |
| Niderlandiya | 12,7 | 14,8 | 153,6 | 117,0 | 16 | 15 |
| Gruziya | 14,5 | 13,8 | 95,7 | 95,7 | 15 | 16 |
| Bangladesh | 11,4 | 13,1 | 112,1 | 114,2 | 18 | 17 |
| Italiya | 6,9 | 13,0 | 146,2 | 188,1 | 26 | 18 |
| Koreya Respublikasi | 7,7 | 10,3 | 78,7 | 133,1 | 24 | 19 |
| Avstriya | 5,1 | 8,9 | 53,4 | 175,0 | 28 | 20 |

## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

*2023-yil yanvar-sentabr*



| | Hajm mln. AQSh dollari | O‘sish sur’ati, % | Ulushi, % |
|---|---|---|---|
| **Samarqand viloyati** | **1 496,5** | **119,0** | **100** |
| Samarqand shahri | 847,2 | 119,8 | 56,6 |
| Kattaqo‘rg‘on shahri | 14,1 | 151,8 | 0,9 |
| tumanlar: | | | |
| Oqdaryo | 16,3 | 115,1 | 1,1 |
| Bulung‘ur | 7,2 | 147,5 | 0,5 |
| Jomboy | 98,1 | 72,2 | 6,6 |
| Ishtixon | 4,9 | 64,2 | 0,3 |
| Kattaqo‘rg‘on | 129,8 | 12,1 m. | 8,7 |
| Qo‘shrabot | 3,6 | 89,7 | 0,2 |
| Narpay | 12,6 | 2,8 m. | 0,8 |
| Payariq | 5,5 | 162,7 | 0,4 |
| Pastdarg‘om | 38,2 | 86,4 | 2,6 |
| Paxtachi | 2,2 | 50,0 | 0,1 |
| Samarqand | 102,0 | 112,1 | 6,8 |
| Nurobod | 17,7 | 133,5 | 1,2 |
| Urgut | 101,6 | 102,5 | 6,8 |
| Toyloq | 95,4 | 92,0 | 6,4 |

**Eng yuqori hajm,** mln. AQSh dollari

- Samarqand sh. 847,2
- Kattaqo‘rg‘on t. 129,8
- Samarqand t. 102,0

**Eng quyi hajm,** mln. AQSh dollari

- Ishtixon t. 4,9
- Qo‘shrabot t. 3,6
- Paxtachi 2,2

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **56,6** % ulush bilan **847,2** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtachi tumani **0,1** % ulush bilan **2,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

*(2023-yil yanvar-sentabr, hajmi mln.* AQSh dollari, *ulushi, %*




2023-yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **2,5** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **0,2** %ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **42,2** %ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**97,5** %), boshqa safarlar (turizm) xizmatlari (**1,6** %), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (**0,7** %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**0,2** %) ga tegishli bo'ldi.

Xizmatlar importida eng yuqori hajm transport xizmatlari **2,5** mln. AQSh dollorini yoki 97,5 % ini tashkil etgan bo'lsa, qolgan 2,5 % ini boshqa xizmat turlari tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI

Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023-yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **526,1** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilning shu davriga nisbatan **59,6** % ga koʻpaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **35,2** % ga yetdi.



## MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

*2023-yil yanvar-sentabr*

1. **XXR** — ***51,9 %*** — **273,1 mln. AQSh doll.**
2. **Turkiya** — ***8,7 %*** — **45,9 mln. AQSh doll.**
3. **Ozarbayjon** — ***8,5 %*** — **44,9 mln. AQSh doll.**
4. **BAA** — ***8,3 %*** — **43,6 mln. AQSh doll.**
5. **Yaponiya** — ***6,6 %*** — **35,0 mln. AQSh doll.**

2023-yil yanvar-sentabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan **196,5** mln. AQSh dollariga koʻpaydi. Ushbu tovarlarni Samarqand viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **273,1** mln. AQSh dollari (**51,9** %), Turkiya – **45,9** mln. AQSh dollari (**8,7** %) va Ozarbayjon – **44,9** mln. AQSh dollari (**8,5** %) kabi davlatlarga toʻgʻri keldi.



# SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2023-yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **339,2** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **97,0** % ni tashkil qildi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **22,7** % ga yetdi.

## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

*2023-yil yanvar-sentabr, ulushi, %*

**Rossiya Federasiyasi** — **128,2 mln. AQSh doll.** *ulushi – **37,8** %*

**XXR** — **91,5 mln. AQSh doll.** *ulushi– **27,0** %*

**Qozog‘iston** — **43,4 mln. AQSh doll.** *ulushi – **12,8 %***

**Turkiya** — **32,1 mln. AQSh doll.** *ulushi – **9,5 %***

**Bangladesh** — **12,7 mln. AQSh doll.** *ulushi – **3,7 %***

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho‘yan yoki po‘lat (**174,7** mln. AQSh dollari), boshqa joyda tasniflanmagan to‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar (**59,9** mln. AQSh dollari), Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (**31,8** mln. AQSh dollari) Boshqa joyda tasniflanmagan metalldan tayyorlangan buyumlar (**22,5** mln. AQSh dollari), va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Тел. 66-235-65-80**